BUYUK MUHADDISLAR HAYOTI VA IJODI

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi 8 sinf o’quvchisi

Nazirova Odina Xasan qizi

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi

Tarix fani o’qituvchisi

Mamatqulova Mubina Axmadjonovna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada islom olami ilmiy-madaniy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan buyuk muhaddislar, xususan, Imom al-Buxoriy va Imom ad-Dorimiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda ular o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari tadqiq etiladi. Maqolada muhaddislarning hadis to‘plash yo‘lidagi zahmatli safarlari (rihlalari), asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari va oliy sanad sohibi ekanliklari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, Shosh (Toshkent) vohasidan yetishib chiqqan Abul Hasan Ali ibn al-Hojib Shoshiy va Hofiz Abu Ali Shoshiy kabi kam o‘rganilgan olimlarning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissalari hamda ularning asarlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Muhaddis, Imom al-Buxoriy, Imom ad-Dorimiy, hadis ilmi, rihla, tabaqa, oliy sanad, Movarounnahr ilmiy maktabi.

Islom olamining ilmiy-madaniy tarixida muhaddislar alohida o'rin tutadi. Ulardan eng buyuklaridan biri Imom al-Buxoriydir. Alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810-yil 21-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan, 870-yil 31-avgustda esa Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida vafot etgan. U islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis, "muhaddislar imomi" va "hadis ilmining sultoni" deb ataladi. Buxoriyning otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan bo'lib, Malik ibn Alaning shogirdi va yaqinlaridan biri edi va tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi esa taqvodor, diyonatli, oqila ayol bo'lib, otasi vafot etgach, Buxoriyning tarbiyasi onasi zimmasiga tushgan.

Buxoriy 5-6 yoshidan boshlab islomiy ilmlarni, Muhammad payg'ambarning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishgan. U taniqli muhaddislar – al-Doxiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviyalardan birorta ham hadisdan qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi kerak edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olgach, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l olgan. 825-yilda Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etgan, onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qolg'an. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig'inida qatnashgan. 827-yilda Madinaga borib, Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza kabi mashhur ulamolardan hadislar bo'yicha saboq olgan. Buxoriyning Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati 6 yil davom etgan. So'ngra Basra, Kufa va Bog'dodga safar qilgan, Shom va Misrga o'tgan. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq olgan va hadislar to'plagan. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishgan. Buxoriy yaratgan "Kitob al-Favourd" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jomi' al-kabiyr" ("Katta tayanch"), "Xalq af'ol alibod" ("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "Al-Musnad al-kabiyr" ("Katta tayanch"), "At-Tafsir al-kabiyr" ("Katta tafsir"), "Kitob al-xiba" ("Xayrehson haqida kitob") va boshqa asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotgan. Buxoriyning boshqa asarlari orasida "Tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Imom Buxoriyning eng mashhur asari "Al-jome' as-Sahih" (Sahihul Buxoriy) bo'lib, bu hadislar to'plami musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida Muhammad payg'ambar sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qilgan: «Al-jome' as-sahih», «Al-adab val-

mufrad», «At-tarix al-kabir», «At-tarix as-sag'ir», «At-tarix al-avsat», «At-tafsir al-kabir», «Birrul volidayn», «Asmo as-sahoba», «Kunyalar» va boshqalar.

Movarounnahrning ikki buyuk muhaddisi Imom Dorimiy va Imom Buxoriy nafaqat bir davrning ulamosi, balki o'rtalarida yaqin do'stlik munosabatlari qurilgan hamfikr, hammaslak olimlardir . Imom Dorimiy Buxoriydan 13 yil oldin, 797-yil Samarqandda tug'ilgan, Buxoriy esa 810-yili Buxoroda tavallud topgan . Oradagi yosh farqi sabab Dorimiy nisbatan ertaroq mashhurlikka erishgan, Imom Buxoriy hali ilmning ilk bosqichlari chog'ida Dorimiyning nomi Misr va Shomgacha yetib borgan edi . Aynan yosh farqi Dorimiyning ustoz, Buxoriyning shogird maqomida turishining asosi bo'lgan, ular orasida ustoz-shogird munosabati bo'lganini manbalar tasdiqlaydi . Buxoriy "Sahihul Buxoriy"dan boshqa asarlarida Dorimiydan rivoyat qilgan . Shuningdek, Dorimiy Imom Muslim, Abu Dovud va Termiziy kabi muhaddis ulamolarning ham ustozidir .

Imom Dorimiy (798–869) – buyuk muhaddis, Samarqandning Dorim qishlog'ida tug'ilgan. U hayotining asosiy qismini ilm talabida safar qilish bilan o'tkazgan, safarlari davomida hadislarni eshitib, jamlash bilan cheklanmay, hadis isnodlarining oliy, muttasil (uzluksiz), undagi roviylarning soni kam bo'lishiga ham katta e'tibor qaratgan. Imom Dorimiy dastlabki ta'limni Samarqandda olgan, hayoti davomida Misr, Iroq, Shom, Hijoz va Xurosonning turli shaharlaridagi olimlardan ilm olib qaytgan. U taxminan qirq yoshida haj ibodatini ado etgan, haj ziyoratidan Samarqandga qaytib kelganidan so'ng ma'lum muddat shayxulislom lavozimida faoliyat olib borган. Imom Dorimiy bir qancha ilmiy ishlarni Samarqandda boshlagan, Xurosondagi ulamolar huzurida ham bo'lgan, Iroq, Shom, Misr, Makka, Madina diyorlarida bo'lib, u yerlik ulamolardan ham foydalangan. Hadis ilmidagi qilgan asosiy harakatlari esa Samarqandda zohir bo'lgan. Imom Dorimiy o'zining «Sunan» asarida 250 dan ortiq shayx-ustozlardan hadis rivoyat qilgan. Muhammad ibn Ibrohim ibn Mansur Sheroziy

aytadilar: "Imom Dorimiy aqlda, fahmda, fazlda, dinda yetuk edilar. U zotning yodlash qobilyati, halimliklari" juda yuqori bo'lgan.

Muhaddislar o'n birinchi tabaqa roviylar oilasiga mansubdir. Ibn Hajar Asqaloniy sahobalardan boshlab rivoyat asrining so'ngigacha bo'lgan roviyalarni o'n ikki tabaqaga ajratgan, o'n birinchi tabaqaga taba tobeindan rivoyat qilganlarni kiritgan bo'lib, Dorimiy va Buxoriyni mazkur tabaqa vakillari sifatida qayd etgan . Dorimiy ham Buxoriy singari oliy sanad sohibidir, uning "Sunan"ida uch roviyli 23 ta hadis mavjud, Buxoriyning "Sahih"ida esa bunday hadislar soni 22 ta . Dorimiyning shogirdi va "Sunan" roviylaridan biri Iso ibn Umar mazkur hadislarni to'plab, "Sulosiyoti Dorimiy" nomi bilan ilm ahliga taqdim etgan .

"Dorimiy ham Buxoriy singari oliy sanad sohibidir" . Dorimiy Imom Buxoriyni juda hurmat qilgan, qadrini, darajasini munosib baholagan . Abdulloh ibn Abdurahmon Dorimiydan Solim ibn Abu Hafsaning hadisi haqida so'rashganda, Imom Dorimiy: "Biz Muhammad ibn Ismoil bilan birga hadis yozgan edik. Shunda Muhammad ibn Ismoil: 'Solim zaifdir', degan edi", dedi . "O'zingiz nima deysiz?" deyilgan edi, u: "Muhammad mendan ko'ra biluvchiroq emasmi?" mazmunida javob berdi . Sulaymon ibn Mujolid bunday deydi: "Abdulloh ibn Abdurahmon Samarqandiydan Muhammad haqida so'radim. U: 'Muhammad ibn Ismoil eng bilimdonimiz, faqihimiz, ildizigacha anglovchi va eng izlanuvchimizdir', deb javob berdi" .

Abu Said Muaddib hikoya qiladi: "Abdulloh ibn Abdurahmondan eshitdim: 'Muhammadning hadis o'rganishi bizning o'rganishimizga o'xshamasdi. U biror kishining hadisini muhokama qilsa, uning shaxsiyatini ham to'liq o'rganib chiqardi'" . Abdulloh ibn Abdurahmonning kotibi Is'hoq aytadi: "Abdulloh mendan Muhammad ibn Ismoilning 'Adabul mufrad' kitobi haqida so'radi. 'Mutolaa qilishim uchun kitobni menga keltirib bergin', dedi. Kitobni olib, uch oycha o'qidi. Undan kitobni qaytarib olayotib: 'Biror ortiqcha gap yoki zaif hadisga ko'zingiz tushdimi?' dedim. U: 'Ibn

Ismoil odamlarga faqat sahih hadis aytadi. Muhammadning hadislari inkor qilinmaydi', dedi" .

Mazkur e'tiroflarga mos ravishda Imom Buxoriy ham ustoziga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatar edi . Is'hoq ibn Ahmad aytadi: "Biz Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning yonida o'tirgan edik. Unga Imom Dorimiyning vafot etgani yozilgan maktub keldi. U bundan iztirobga tushib, munkayib qoldi, keyin boshini ko'tarib, istirjo aytdi. Ko'z yoshlari yonoqlariga tusha boshladi. Umrida hech she'r o'qimagan Buxoriyning og'zidan quyidagi misralar to'kildi: 'Oxirida qolsang do'stlaring o'limi achchig'ini totishga majbursan, ammo sening o'liming yanada ko'proq mahzunlik berdi'" .

Shosh (hozirgi Toshkent) o'lkasidan ham ko'plab buyuk muhaddislar yetishib chiqgan. Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon" asarida Shosh shahri haqida: "Bu — Shosh deb ataladigan shahar. Unga nisbat qilinadigan shaxslar kamdan-kam uchraydi. Biroq Shoshdan ko'plab olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ulamo, roviylar va adiblar shu yerga nisbat berilgan" degan . IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat jadal taraqqiy qilgan, Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Termiz, Xiva, Shosh (Toshkent) kabi qadimiy shaharlar islom dunyosida ilmiy-madaniy markazlar sifatida mashhur bo'lgan .

Shoshdan yetishib chiqqan muhaddislar ichida Abul Hasan Ali ibn al-Hojib ibn Junayd Shoshiy (vaf. 926-yil) sanaladi, u ilm talabida Huroson, Iroq, Hijoz va Shomga borgan, Yunus ibn Abd al-A'lo va Ali ibn Xushramdan hadis rivoyat qilgan . "Al-Irshod" ("Rahnamolik qilish") asari Ali ibn Hojib ibn Junayd Shoshiy qalamiaga mansub . Ali ibn Nasr Shoshiy (406/1015–486/1093) – shayx, olim, ishonchli muhaddis, muhaddis savdogar va roviy sifatida Shosh o'lkasidan boshqa yurtlarni ham kezib, moddiy va ma'naviy tomondan muvaffaqiyatlarga erishgan . Umrining oxirlarida Misrda Abu Hasan Taffoldan, Nishopurda Abu Husayn Forisiy va Ibn

Masrurdan, Surda Xatibdan, Iskandariyada Husayn ibn Muhammad Ma'fariydan hadis eshitgan .

Hofiz Abu Ali Shoshiy – hofiz va muhaddis darajasiga yetgan olim, milodiy to'qqizinchi asrda Shoshda tug'ilgan . U ko'p yurtlarni kezgan, ilm talabida Xuroson, Iroq, Shom, Makka va Madina, Yaman, Misrdagi turli tabaqa egalari bo'lgan muhaddislardan hadislar eshitgan . Abu Ali Shoshiy nafaqat hadislar, balki safar qilgan mamlakatlar, mashhur olimlar, shayxlar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar qoldirgan . Buyuk allomalardan Abu Bakr Qaffol Shoshiy ham Hofiz Abu Ali Shoshiydan hadis rivoyat qilgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahamadjonov Q. SHOSH O'LKASIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN MUHADDISLAR Central Asian Journal of Education and Innovation, 2025
2. Ibn Hajar Asqaloniy. Tahzibut tahzib. – Bayrut, 1984. –J.5. –B. 258.
3. Ochildiyev, A. S., Turdiyev, D. M., & Karimova, N. K. (2022). Sharq allomalarining ilmiy merosi. Durdona nashriyoti, Buxoro.
4. Maxsudov, D. (2020). Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar). Tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, O‘zXIA, Toshkent, 145 b.
5. Islomov, S., & Ziyodov, S. (2022). Imom Buxoriy. Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi.